

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI  
MILLIY INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY  
INSTITUTI**

**SAIDXONOVA NAZOKAT JOLDASOVNA**

**O‘QUVCHILARGA HAYOT XAVFSIZLIGI QOIDALARINI O‘RGATISH  
ASOSIDA MAS’ULIYAT TUYG‘USINI TARBIYALASH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstracts of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Saidxonova Nazokat Joldasovna**

О'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish asosida mas'uliyat  
tuvg'usini tarbiyalash metodikasi ..... 3

**Саидхонова Назокат Жолдасовна**

Методика воспитания чувства ответственности на основе обучения  
учащихся правилам безопасности жизнедеятельности ..... 25

**Saidkhanova Nazokat Joldasovna**

The methodology of fostering a sense of responsibility based on teaching  
students the rules of life safety ..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 54

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI  
MILLIY INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY  
INSTITUTI**

**SAIDXONOVA NAZOKAT JOLDASOVNA**

**O‘QUVCHILARGA HAYOT XAVFSIZLIGI QOIDALARINI O‘RGATISH  
ASOSIDA MAS‘ULIYAT TUYG‘USINI TARBIYALASH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Ped8771-raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.qoriniyoziytpmi.uz](http://www.qoriniyoziytpmi.uz)) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xusanova Sumbul Islamovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ibragimov A’lamjon Amrillayevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Olimov Shirinboy Sharopovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/30.07.2024.Ped.165.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Ziyo ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+99855) 511-02-69; faks: (+99855) 511-02-69; e-mail: [uzpfiti@exat.uz](mailto:uzpfiti@exat.uz)).

Dissertatsiya bilan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ -raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Ziyo ko‘chasi, 6-uy. Tel.: (+99855) 511-02-69; faks: (+99855) 511-02-69; e-mail: [uzpfiti@exat.uz](mailto:uzpfiti@exat.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ -raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.Quronov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., professor

**O.U.Musurmonkulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
p.f.f.d. (PhD)

**Sh.Q.Mardonov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi,  
p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda davlat ahamiyatiga molik bo'lgan hujjatlar mazmunida ko'rsatib berilganidek, umumiy o'rta ta'lim uzluksiz ta'limning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samarali tashkil etilishi navbatdagi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatlarga erishishning muhim kafolati bo'la oladi. Maktabda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'quv-bilish faoliyati ko'nikmalari, ma'naviy-ahloqiy sifatlarning o'rta maxsus hamda oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish chog'ida yanada mustahkamlanib, boyib borish imkoniyati yuzaga keladi. Ana shu jihatiga ko'ra maktab ta'limini tashkil etish, ayniqsa, uni samarali bo'lishiga erishish o'ta mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o'quvchidagi mas'uliyat hissini tarbiyalash asosida ularni dunyoda turli tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar soni tobora ortib borayotgan sharoitda, favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida tayyorlash, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga nisbatan mas'uliyatli bo'lishga o'rgatishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish orqali o'quvchilarni turli xavflar va ulardan muhofazalanish qoidalariga o'rgatishda xavfsizlikka nisbatan mas'uliyatlilik tushunchalarini shakllantirish, shuningdek, ulardagi ruhiy barqarorlikni rivojlantirish va jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish ko'nikmasini hosil qilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahondagi yirik davlatlar qatorida AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Isroil, Polsha, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Qozog'istonda o'quvchilarga o'zini qutqarish, o'zaro bir-birini qutqarish, o'zgani qutqarish yo'nalishlari bo'yicha jismoniy va psixologik jihatdan tayyorlash va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish asosida mas'uliyat va javobgarlik hissini mavjudligini takomillashtirish masalasi interfaol o'qitish ta'lim tizimida rivojlangan bo'lib, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan. Dunyo miqiyosida zamonaviy ta'lim jarayoni doirasida o'quvchilarda atrofdagi voqelikka, shuningdek, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni va bevosita o'zlariga nisbatan qarashlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarning oldini olish, tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar va halokatlarning oqibatlarini muvaffaqiyatli bartaraf etish, shuningdek, ular sodir bo'lganda o'z vaqtida to'g'ri harakat qilish, o'ziga va atrofdagilarga yordam ko'rsatish zarurligiga ishonch hosil qilish manfaatlarini ko'zlagan holda ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shuning uchun umumta'lim maktabining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga maxsus bilimlarni berish, ularda xavfsiz hayot kechirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish hisoblanadi. Shu ma'noda bu borada har qanday xavf holatida ularning ongida atrofdagilarga o'zini va o'zgalarni hayotiga xavf solayotgan vaziyatlarda mas'uliyatli va javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash zaruriyati tug'iladi. Ta'kidlash joizki, o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini rag'batlantirish, turli xil hayotiy vaziyatlar sharoitida to'liq va har tomonlama rivojlantirish, shuningdek, xavfsizligini muhofaza qilish, o'zini va o'zgalarni hayotiga xavf solayotgan vaziyatlarda mas'uliyatli va javobgarlik

tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan hayot xavfsizligi qoidalarini o'quv fanlari kesimida o'rgatish alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli, 2022-yil 17-avgustdagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi O'RQ-790-sonli Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi"dagi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-sonli "Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentabrdagi 754-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'quvchilarda o'quv-bilish faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish o'ta dolzarb masala sanaladi. Shu bois bir guruh tadqiqotchilarning e'tibori bu masala yuzasidan mustaqil tadqiqotlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ular sirasiga Sh.Abdullayeva, T.N.Najmiddinova, X.P.Nazarova, H.F.Umarovalarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari, o'quvchilarda bilish qobiliyatini shakllantirishning didaktik omillari, ularda kommunikativ savodxonligini ta'minlash masalalari tadqiq etilgan.

Ta'limda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari, ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida pedagoglarning kasbiy malakalarini takomillashtirish masalalari A.A.Abdudodirov, N.N.Azizxo'jayeva, A.R.Aripdjanova, J.O.Baltabayev, Sh.R.Baratov, U.Sh.Begimqulov, M.Davletshin, R.X.Djurayev, L.R.Zaripov, U.N.Nishonaliyev, D.X.Sadikova, G.A.Seytimbetova, I.S.Xamrayeva, T.L.Xurvaliyeva, D.U.Qo'chqarov, J.G'.Yo'ldoshev va boshq., ekologik ta'lim, atrof-muhitni himoyalash, hayot faoliyati xavfsizligi masalalari G.Yormatov, M.M.Isabayeva, I.Nigmatov, N.O'.Nishonova, E.O.Turdiqulov, A.Urazaliyev, M.Uralov, S.I.Xusanova, O'.Yuldashev, A.Qudratov va boshqalarning tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Mustaqil hamdo'stlik davlatlarida "Hayot faoliyati xavfsizligi" fannining rivojlanishi va sohadagi ilmiy muammolar N.N.Avdeyeva, S.Belov, S.Alekseyev, P.Dolin, V.Makashov, A.Marinchenko, S.Petrov, L.F.Tixomirova, T.G.Xromsova va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Bevosita o'quvchilarda mas'uliyatlilik masalalari bo'yicha M.M.Baxtin, Ye.K.Veselova, X.Yonas tomonidan tadqiqot

ishlari amalga oshirilgan. O‘quv jarayonini interfaol o‘qitish metodlari vositasida takomillashtirish bilan bog‘liq tadqiqot ishlari V.P.Bespalko, L.K.Geyxman, M.V.Klarin, T.V.Perevalova, B.L.Farbermanlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Xorij olimlaridan E.Bern, M.Djeyms, D.Djongvard, G.Spenser kabilarning tadqiqot ishlarida tabiatni muhofaza qilish, ekologik xavfni bartaraf etish asoslarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish masalasi tadbiq etilgan.

Mavjud pedagogik adabiyotlar hamda pedagogika yo‘nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlar bilan tanishish xorijiy mamlakatlar va O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchilarda mas‘uliyat hissini shakllantirishga oid maxsus manbalar deyarli mavjud emasligini ko‘rsatdi. Birgina M.Sh.Allamuratova va G.Jo‘raboyevalar tomonidan yaratilgan risola bundan mustasno bo‘lib, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda mas‘uliyat hissini shakllantirishga bag‘ishlangan.

Ta‘kidlash joizki, tahlillardan ko‘rinib turibdiki, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida hayot xavfsizligi qoidalarini o‘quv fanlari kesimida o‘rgatishda interfaol usullarni qo‘llash asosida o‘quvchida mas‘uliyatli bo‘lish, o‘zi va o‘zgalar hayoti uchun xavf jarayonlarida, xavfli vaziyatlarda o‘quvchining har tomonlama atrofdegilar uchun javobgarlikni his qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish asosida mas‘uliyat tuyg‘usini tarbiyalash bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish yetarli darajada tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Umumta‘lim maktablarining 5-6 sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo‘llash metodikasi” mavzusidagi olima ayollar innovatsion loyiha (2024-2025), FZ-2016-0909111822 “Darsliklar va o‘quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari” nomli fundamental tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish asosida mas‘uliyat tuyg‘usini tarbiyalash metodikasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘quvchilarda mas‘uliyat tuyg‘usini tarbiyalash mazmuni dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish bilan xavfsizlikka oid ma‘naviy-axloqiy g‘oyalarni shaxsiy qadriyat sifatida shakllantirish;

mas‘uliyat tuyg‘usini tarbiyalash metodikasi orqali o‘quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish jarayonida interfaol usullar qo‘llash va shaxsiy javobgarlik modelini amaliyotga tatbiq etish;

o‘quvchilarda mas‘uliyat tuyg‘usi tarbiyalanganlik samaradorligini baholash mezon ko‘rsatkichlari hayot xavfsizligi qoidalarini o‘zlashtirganlik darajalari mazmunini aniqlashtirish;

o'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish texnologiyalari o'quv-tarbiya jarayonida xavfsiz xulq-atvor tajribasini boyitish, "oila-maktab-mahalla" hamkorligi bilan ijtimoiy-pedagogik integratsiya va profilaktik faoliyat uzviyligini ta'minlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishda o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon tanlangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahar, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarining umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 752 nafar o'quvchilar jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmeti** hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishda o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakli, metodi va vositalari.

**Tadqiqot usullari** tadqiqot jarayonida suhbat, anketa, savol-javob, tahlil, umumlashtirish, test, pedagogik eksperiment, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash kabi empirik usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash mazmuni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda hayot xavfsizligini faqat jismoniy emas, balki ma'naviy mas'uliyatning bir qismi sifatida hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish bilan xavfsizlikka oid ma'naviy-axloqiy g'oyalarni shaxsiy qadriyat sifatida shakllantirish asosida takomillashtirilgan;

mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash metodikasi o'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish jarayonida interfaol usullar (case-study, role-play, brainstorming) va axborot texnologiyalarini (multimedia, simulyatsiya, virtual reallik) tarbiyaviy ta'sir vositalari (ishontirish, o'rnatish, mashqlantirish) bilan integrativ qo'llash orqali ijtimoiy-axloqiy ong hamda shaxsiy javobgarlik modelini amaliyotga tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usi tarbiyalanganlik samaradorligini baholash mezon ko'rsatkichlari hayot xavfsizligi qoidalarini o'zlashtirganlikning yuqori (xavfli vaziyatlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qila oladi, o'zining va boshqalarning xavfsizligi uchun mas'uliyatni his etadi), o'rta (xavfsizlik qoidalarini biladi, biroq ularni amaliyotda doimiy qo'llashda barqaror emas) va quyi (xavfsizlik me'yorlarini to'liq anglamagan, mas'uliyat hissi sust, xavfli holatlarda noaniq harakat qiladi) darajalari mazmunini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish texnologiyalari o'quv-tarbiya jarayonida xavfsiz xulq-atvor tajribasini boyitish, xavfli holatlarning oldini olish, favqulodda vaziyatni to'g'ri baholash hamda mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi "oila-maktab-mahalla" hamkorligi bilan ijtimoiy-pedagogik integratsiya va profilaktik faoliyat uzviyligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida interfaol texnologiyalar yordamida hayot xavfsizligi qoidalarini o'quv fanlari kesimida o'rgatish asosida mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash metodikasi takomillashtirilgan va tarbiya, sinf

soati, fizika, biologiya, kimyo, jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv fanlari mazmuniga singdirilgan;

hayot xavfsizligi qoidalarini o'quv fanlari kesimida o'rgatishda interfaol usullardan foydalanishga yo'naltirilgan "Hayot xavfsizligi asoslari" kursini o'rgatishda interfaol o'qitish usullari nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

o'quvchilarda faollikni oshirish, mas'uliyatni tushunish, vaziyatga baho berish, qaror qabul qilish xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va aprotatsiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ishida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik tahlil metodlari vositasida aniqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishda interfaol usullaridan samarali foydalanish shakllari va texnologiyalari asosida mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashda o'quvchilarning vaziyatga baho berish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida hayot xavfsizligi qoidalarini o'quv fanlari kesimida interfaol texnologiyalardan foydalanishga yo'naltirilgan o'qitish metodikasining takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishda interfaol usullardan samarali foydalanish maqsadida ishlab chiqilgan qo'llanma hayot xavfsizligi qoidalarini o'quv fanlari kesimida o'qitish metodikasining metodik ta'minotini mustahkamlashga xizmat qilishi, o'qituvchilar ish tajribasini oshirishda shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tadbirlarni o'tkazishda samarali foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish asosida mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash metodikasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash mazmuni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda hayot xavfsizligini faqat jismoniy emas, balki ma'naviy mas'uliyatning bir qismi sifatida hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish bilan xavfsizlikka oid ma'naviy-axloqiy g'oyalarni shaxsiy qadriyat sifatida shakllantirish asosida takomillashtirishga oid takliflaridan "Umumta'lim maktablarining 5-6 sinf adabiyot darslarida IT-texnologiyalarini qo'llash metodikasi" mavzusidagi olimlar innovatsion loyiha (2024-2025) doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2025-yil 21-maydagi 01-09/274-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda hayot xavfsizligini faqat jismoniy emas, balki ma'naviy mas'uliyatning bir qismi sifatida o'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini

o'rgatish bilan xavfsizlikka oid ma'naviy-axloqiy g'oyalarni shaxsiy qadriyat sifatida shakllantirishga erishilgan;

mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash metodikasi o'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish jarayonida interfaol usullar (case-study, role-play, brainstorming) va axborot texnologiyalarini (multimedia, simulyatsiya, virtual reallik) tarbiyaviy ta'sir vositalari (ishontirish, o'rnak ko'rsatish, mashqlantirish) bilan integrativ qo'llash orqali ijtimoiy-axloqiy ong hamda shaxsiy javobgarlik modelini amaliyotga tatbiq etish asosida takomillashtirishga oid mualliflik g'oyalari Toshkent shahar, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarining umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2025-yil 20-fevraldagi 01/11-11-144-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish jarayonida interfaol usullar va axborot texnologiyalarini tarbiyaviy ta'sir vositalari bilan integrativ qo'llashga erishilgan;

o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usi tarbiyalanganlik samaradorligini baholash mezon ko'rsatkichlari hayot xavfsizligi qoidalarini o'zlashtirganlikning yuqori (xavfli vaziyatlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qila oladi, o'zining va boshqalarning xavfsizligi uchun mas'uliyatni his etadi), o'rta (xavfsizlik qoidalarini biladi, biroq ularni amaliyotda doimiy qo'llashda barqaror emas) va quyi (xavfsizlik me'yorlarini to'liq anglamagan, mas'uliyat hissi sust, xavfli holatlarda noaniq harakat qiladi) darajalari mazmunini aniqlashtirish asosida takomillashtirishga oid taklif va muloxazalaridan FZ-2016-0909111822 "Darsliklar va o'quv adabiyotlari mazmuniga Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini singdirish orqali o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari" nomli fundamental tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2025-yil 21-maydagi 01-09/274-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usi tarbiyalanganlik samaradorligi hayot xavfsizligi qoidalarini o'zlashtirganlikning yuqori, o'rta va quyi darajalarida aniqlashning maqsadga muvofiqligini aniqlashga erishilgan;

o'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish texnologiyalari o'quv-tarbiya jarayonida xavfsiz xulq-atvor tajribasini boyitish, xavf holatlarini oldindan bashorat qilish hamda mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi "oila-maktab-mahalla" hamkorligi bilan ijtimoiy-pedagogik integratsiya va profilaktik faoliyat uzviyligini ta'minlash asosida takomillashtirishga oid mualliflik g'oyalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining ma'rifiy va badiiy ko'rsatuv va radioeshittirishlar ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2025-yil 31-oktabrdagi 05-09-1698-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish texnologiyalarini "oila-maktab-mahalla" hamkorligi bilan ijtimoiy-pedagogik integratsiyasini ta'minlashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 7 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mazmunini yorituvchi jami 28 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta uslubiy qo'llanma, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika va 8 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, sakkiz paragraf, xulosa va tavsivalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 146 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish asosida o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga mas'uliyat tushunchasini anglatish, mas'uliyat va javobgarlik hissini tarbiyalash, uni har bir fanni o'rganish davomida o'quv, biluv ko'nikmalari bilan birgalikda ularni singdirish masalalariga e'tibor qaratilganligi, shu bilan birgalikda insonlarni hayot xavfsizligini ta'minlashning muhim pedagogik muammo ekanligi, atrofdagilarni har qanday xavf holatida ularni himoya qilish choralariiga mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatish, mas'uliyat va javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalashni bevosita ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish asosida hayot xavfsizligi qoidalarini tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yoritilgan.

Har bir shaxsning mas'uliyat hissiga ega bo'lishi u tomonidan zimmasidagi vazifalarni sidqidildan, mavjud talablarga muvofiq bajarilishini ta'minlaydi. Zimmadagi vazifalarning to'laqonli bajarilishi esa muayyan faoliyat jarayonida yangi yutuqlarni qo'lga kiritish va ularni rivojlantirishga yordam beradi, shu bois jamiyatda bozor munosabatlari ustuvor o'rin egallayotgan bir sharoitda uzluksiz ta'lim tizimi oldida mas'uliyat hissiga ega o'quvchilarni shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biridir.

Manbalarda “mas'uliyat” tushunchasi “ixtiyoriy shaxsning o'z xatti-harakati va faoliyati natijasi uchun javobgarlikni his etishi” (R.X.Djurayev, S.T.Turgunov), “odamning har bir amali, faoliyati mahsulini to'lik tasavvur qilgan holda, uning o'zi va o'zгалar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyati” (V.Karimova, A.Umarov, M.Quronov) sifatida sharhlanadi.

O'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirishga boshlang'ich ta'lim davridanoq e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, bu davrda o'quvchi hulq-atvorida hosil bo'lgan sifatlarning keyingi bosqichlarda yanada

mustahkamlanib borishi komil insonni shakllantirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondiradi.

I.A.Uzakovning fikricha, o'quvchilarda ma'suliyat hissini shakllantirishda oila va ta'lim masalalari o'rtasidagi hamkorlikni qaror toptirish yo'llari, respublika miqyosida ta'limni samarali tashkil etish, o'quvchilarda o'quv jarayoniga bo'lgan ma'suliyatli yondashuv va intizomni yuzaga kelishiga yordam berishi va ta'lim tizim mazmunini boyitishdan iborat. Uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichlarida ma'suliyat hissini shakllantirish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida tan olish kabi jarayonlarini ham qamrab oladi.

Ma'suliyat tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, aksariyat o'rinlarda "Javobgarlik" tushunchasi uning muqobili sifatida qo'llaniladi. Masalan, davlat javobgarligi, huquqiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik va hokazo tarzida. Shuningdek, "mas'uliyat" tushunchasi shaxs tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyat yo'nalishi va mohiyati nuqtai nazardan ham o'zaro farqlanadi.

Bizning nazarimizda, mas'uliyat muayyan xatti-harakatlar, kasbiy va ijtimoiy faoliyatni bajarishga, shuningdek, ma'lum guruh yoki shu guruh a'zolari oldidagi burchini to'la bajarish uchun javobgarlikni his etishdir.

Shunga ko'ra, mas'uliyat turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Nazariy tahlil va pedagogik kuzatish o'quvchilarning mas'uliyat hissiga egaliklari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishini tasdiqladi.

O'quvchilarning vazifalari bevosita o'quv faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq bo'lib, shaxsiy xususiyat kasb etadi. Odatda o'quvchidan o'z oldida turgan vazifalarni bajarishga nisbatan ma'naviy-ahloqiy yondashishni taqozo etilsada, biroq bu jarayon majburlov xarakteriga ega bo'lmaydi.


O'quvchining mas'uliyati esa, uning oldida turgan vazifalar hamda zimmasidagi burchni yuqori darajada javobgarlikni, his qilgan holda bajarilishini anglatadi. Zero, yuqori darajada javobgarlikni his qilish burch hamda vazifalarning to'la-to'kis bajarilishini ta'minlaydi.

Qator tadqiqotlar esa, o'quvchilarda ma'naviy-ahloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan. Jumladan, M.Bozorova, O.N.Ibodullayeva, G.Saparova, A.V.Kabilova, M.B.Raximkulova, A.A.Raxmatullayev, A.Teshaboyev, S.Usmonovlarning ishlarida boshlang'ich sinflarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, muloqot ko'nikmalari, insonparvarlik, ijtimoiy faollik, mehnatsevarlik, do'stlik va o'rtoqlik tuyg'ularini shakllantirish hamda bu jarayonda xalq an'alaridan foydalanish, shuningdek, ularni darsdan tashqari mashg'ulotlarda ekologik qadriyatlar va xalq og'zaki ijodi vositasida ahloqiy shakllantirish muammolari o'rganilgan.

Manbalarni nazariy jihatdan o'rganish ko'plab tadqiqotchilar (N.Golovko, L.I.Gryadunova, K.A.Klimova, R.Kosolapov, V.Markova, A.F.Plaxotniy, L.S.Slavina, G.V.Fartuxovalar) tomonidan shaxs mas'uliyati muammosining tadqiqiga e'tibor qaratilganligini ko'rsatdi. Biroq, mazkur manbalar nashr jihatidan eski bo'lib, ularda muammo sinfiy nuqtai nazaridan o'rganilgan.

O'quvchilarning mas'uliyat hissiga ega bo'lishlari ularning ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga egaligi, biroq mavjud sharoitda bu yo'nalishda mustaqil tadqiqotning amalga oshirilmaganligini inobatga olgan holda ta'lim

tizimida o‘quvchilarning xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan muammolarni hal qilishda noan’anaviy yondashuv ya’ni interfaol usullarni o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va ulardan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlashni talab etadi. Ayni shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 19-iyuldagi 208-sonli qarorida aholiga favqulodda vaziyatlar va ular sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakatlanishga oid bilim-malakalarni izchil singdirish va ularga bu kabi vaziyatlarga ham ruhan, ham jismonan shay turishdek oliy maqsad ko‘zlangan<sup>1</sup>.



**1-rasm. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mas‘uliyatni tarbiyalash aspektlari**

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 19-iyuldagi 208-sonli “Aholini zilzilalar oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarda (tabiiy va texnogen tUSDagi) harakat qilishga tayyorlash kompleks dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning shaxsiy hayot xavfsizligi sohasida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga oid yangi davlat ta'lim standartlari joriy etilishi bilan birga, ushbu kursning yangi maqsad va vazifalari paydo bo'lishi 1-rasmda ko'rsatib berilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yaqinda paydo bo'lgan, ammo tezda o'zini fanlar kesimida o'rgatish zarurligi sifatida namoyon etgan "Hayot xavfsizligi asoslari" kursiga alohida e'tibor qaratildi, bu esa, uning o'quv jarayonida o'quvchilarda mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashni davom etishiga olib keladi. Ushbu kursning o'ziga xosligi, uning rivojlanishi jamiyat talabi bilan bog'liqligi va o'quvchilarda nafaqat xavfsizlik to'g'risida nazariy tushunchalarni shakllantirish, balki o'zlarini muhofaza qilish, uning usullari va shakllari to'g'risida amaliy g'oyani ishlab chiqish ham juda zarur ekanligi ta'kidlangan.

Xavfsizlik insonning obyektiv ehtiyoji sifatida qaraladi, bu uning butun hayot jarayoni davomida uning har tomonlama himoya qilishini belgilaydi. Shuningdek, xavfsizlik deganda insonning tashqi ta'sirlardan qo'rqmasdan o'zini to'liq anglashiga imkon beradigan himoyani olishga qaratilgan obyektiv inson ehtiyoji tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda o'quvchilarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy g'ururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, yuqori intellekt hamda yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash hamda xavfsizligini ta'minlash umumiy o'rta ta'lim maktab tizimida o'qitilayotgan "Hayot xavfsizligi asoslari" kursining oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarning kirib kelishi ko'pgina o'quv fanlari singari "Hayot xavfsizligi asoslari" kursiga ham ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi imkoniyatlarni yaratdi, bu o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga bilim, ko'nikma va amaliy tajribani hosil qilishga qaratilgan faol ravishdagi ilmiy-metodik ishlar amalga oshirilmoqda va mazkur harakatlar davlat ta'lim standartlariga singdirilmoqda.

O'quvchilarda "Hayot xavfsizligi asoslari" kursini o'rganish asosida mas'uliyat hissini shakllantirish o'quvchilarning quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishlarini talab etadi:

1. Yosh xususiyatlariga ko'ra, o'quvchilarning o'qish va jismoniy mehnat faoliyatini tashkil etish ko'nikmalariga egaliklarini aniqlash.

2. Ota-onalar bilan suhbatlar tashkil etish asosida oilada farzandlar zimmasiga muayyan majburiyatlarning yuklanganligi va ularning bolalar tomonidan bajarilish holatini o'rganish.

3. Bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish vositasida o'quvchilar tomonidan ular zimmasidagi vazifalarning bajarilish darajasini tahlil etish.

4. Suhbat (hayotiy misollar asosida), ko'rgazmali namoyish etish (bolalar uchun mo'ljallangan badiiy, hujjatli hamda multfilmlarni tomosha qilish, ekskursiyalar uyushtirish asosida), mashqlantirish (amaliy mashq (xatti-harakat)larni yo'lga qo'yish (masalan, sinf navbatchiligini tashkil etish, dars, ommaviy ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etish, shuningdek, ekskursiyalar jarayonida individual ravishda, kichik guruhlar yoki ommaviy ravishda muayyan

vazifalarning bajarilishiga erishish) kabi metodlar yordamida ma'lum faoliyatni bajarishga nisbatan mas'uliyatli yondashuvni qaror toptirishga erishish.

Fanlar kesimida o'quv mazmunini tashkil etishning u yoki bu darajasini ta'lim jarayonida joriy etish natijasida o'quvchining vaqti va kuchi tejaladi, uning bilish imkoniyatlari kengayadi; mavzulararo integratsiya asosida o'quv-bilish jarayoni natijalarini istiqbollash mexanizmlari yaratiladi; integratsiyalashtirilgan ta'lim jarayonini boshqaradigan o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirishni yo'lga qo'yish uchun huquqiy metodik imkoniyatlar yaratiladi; integrativ dasturlar asosida o'quv-bilish jarayonining iqtisodiy jihatdan samaradorlik darajasi aniqlanadi; o'quv-bilish jarayonini integral dasturlar asosida tashkil etish sohasidagi xalqaro tajribalardan keng foydalanish uchun qulay imkoniyatlar tug'iladi. Masalan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv fanlari, jumladan, "Tarbiya", "Sinf soati", "Fizika", "Biologiya", "Kimyo" va "Jismoniy tarbiya" fanlaridagi o'quvchilarni hayot xavfsizligi bilan bog'liq voqea-hodisalarga tayyorlashda bevosita aynan 10-sinfda "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani orqaligina emas, balki yuqorida ta'kidlangan o'quv fanlari kesimida ko'nikma hosil qilish maqsadga muvofiq.

Mavzuli rejani ishlab chiqishda asosiy muammo kasbiy kompetensiya tavsiflari o'quv axborotining nazariy qoidalarini taqdim qilish hisoblanadi. O'quv faoliyatida obyekt haqida gap borganida asosiy e'tibor uning funksional vazifasi, ishlash prinsipi, texnik xarakteristikalari, konstruksion parametrlari va uning har bir elementi vazifasini aniqlash orqali qurilmaning konstruksiyasiga qaratiladi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida tarbiya, sinf soati, fizika, biologiya, kimyo, jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari vositasida o'quvchilarni hayot xavfsizligi bilan bog'liq ko'nikma hosil qilishda o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida tarbiya, sinf soati, fizika, biologiya, kimyo, jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari vositasida o'quvchilarni hayot xavfsizligi bilan bog'liq ko'nikma hosil qilishda o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi.

O'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishda o'yin faoliyatini tashkil etish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishda o'yin faoliyatini tashkil etish jarayonida maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlariga tayanish kerak. O'smir yoshdagi o'quvchilar uchun keng kognitiv, isbotlash, dalillar keltirishga asoslangan bilimga qiziqish bilan tavsiflanadi.

O'smirlarda o'quv kognitiv motivi ularning bilim olish usullariga qiziqishida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Interfaol usullar yordamida o'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish asosida mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida o'quvchilarga mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash asosida hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishda interfaol texnologiyalardan foydalanish metodikasi, o'quvchilarni fanlar kesimida tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashda noan'anaviy ta'lim usullarini qo'llashning didaktik modeli, o'quvchilarga fanlar kesimida hayot xavfsizligi qoidalarini o'qitishda interfaol usullarni joriy etish texnologiyasini takomillashtirish mexanizmlari va fanlar kesimida o'qitish jarayonining o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari ochib berilgan.

Bugungi kunda maktab o'quvchilarining hayot xavfsizligi qoidalarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari bo'lgani bilan, uni o'zlashtirish va to'liq anglab olishlari qiyin kechmoqda. Shuning uchun ulardan o'ziga xos ravishda xavf va uni oldini olish choralari nisbatan mas'uliyatli bo'lish talab etilmoqda. Qachonki, yangi ma'lumotlar o'quvchi shaxsi uchun fanlar kesimi mazmuniga singdirilgan holda berilar ekan, ular noan'anaviy ta'lim usullari bilan boyitilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarning hayot xavfsizligi bo'yicha umumiy ko'nikmalar hosil qilish asnosida bir necha fanlar kesimida o'zaro o'rganishlar tahlilida bevosita interfaol usullardan foydalangan holda ushbu darslarning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchilarning aqliy faoliyati ilgari ishtirok etmagan omillarni o'z ichiga oladi, ya'ni bunga – hissiyotlar, tasavvurlar va g'oyalarni kiritamiz.

“Hayot xavfsizligi asoslari” o'quv dasturini o'qitishda umumta'lim maktab o'quvchilarida mas'uliyat hissini shakllantirish jarayoni quyidagicha tashkil etiladi:

1. Og'zaki bayon etish, hikoya qilish hamda bajarib ko'rsatish orqali o'quvchilarga ular zimmasiga yuklangan ijtimoiy vazifa va burchlarning mohiyatini tushuntirish.

2. O'quv fanlari asoslarini o'zlashtirish yoki turli yo'nalishlarda hayot xavfsizligi bilan bog'liq holatlardagi jarayonlarni tashkil etishga oid topshiriqlarning bajarilish holatini izchil, uzluksiz nazorat qilib borish asosida ularda mas'uliyat hissiga egalik unsurlari (burchni aniglash, burchni bajarishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini to'g'ri baholash, burchni bajarishga nisbatan ongli yondashuv, birinchi yordam ko'rsatish xohishi va harakati, faoliyatni tashkil etish jarayonida intizomli bo'lish, faoliyat natijasi uchun javobgarlikni his etish)ni shakllantirish. Masalan, jismoniy tarbiya fanini o'qitishning maqsadi – o'quvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sog'lom qilib tarbiyalash, salomatligini saqlash, mustahkamlash ularni jismonan yetuk, barkamol bo'lib yetishishlari, inson salomatligi to'g'risidagi, to'g'ri ovqatlanish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish kabi bilimlarini hayotda qo'llay olish, va mashg'ulotlarda xavfsizlik qoidalariga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Jismoniy tarbiya fani tarkibiga “Salomatlik asoslari”, “Sog'lom avlod asoslari” hamda “Hayot xavfsizligi asoslari” o'quv kurslarini singdirib o'qitilishi lozim.

I-IV-sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiyalashda muhim vazifalar:

shaxsiy gigiyena, kun tartibiga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish, ertalabki badantarbiya, kundalik turmush va jismoniy mashqlarning salomatlikka ta'siri haqida asosiy bilimlarni shakllantirish, mayda motorikani rivojlantirish;

asbob-uskunalar va jihozlardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o'rgatish;

V-XI sinflarda o'quvchilarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan gimnastika, yengil atletika, sport (basketbol, voleybol, qo'l to'pi), futbol, kurash va boshqa sport turlari bo'yicha jismoniy tarbiya profilaktikasi joriy etiladi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya muammolarini to'la hal etish va barcha ta'lim talablarini bajarishni ta'minlovchi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning nisbatiga rioya qilish lozim.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'qituvchi o'quvchilarning xavfsizligi va sog'lig'iga to'g'ridan to'g'ri javobgar bo'lib, darsning o'quv mashg'ulotlariga ularni jalb etishda quyidagi ishlarni amalga oshiradi; jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida, birinchi navbatda, intizomli bo'lishga, mashqlarni bajarish tartibiga va texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o'rgatish.

STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan. Fizika fanini o'rganish I-VI-sinflarda "Science" (tabiiy fanlar – biologiya, kimyo, fizika, geografiya) fani sifatida integrasiyalashgan holda o'qitiladi. Jumladan, Quyosh, yer, Oy va uning ahamiyati, ob-havo, yil fasllari, atrofimizdagi narsalar: uy anjomlari, o'quv qurollari, kiyim-kechaklar, oziq-ovqat mahsulotlari, gazdan foydalanish, uyda foydalaniladigan elektr jihozlari, uyda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, jism va moddalar, suvning holatlari, termometrdan foydalanish, ob-havoni kundalik kuzatish, kun va tunning, yil fasllarining davriy almashinishini va boshqa tushunchalar shakllantiriladi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlar, jismoniy tarbiya fani, ijtimoiy fanlar mazmunida tashkil etish ko'pincha maxsus qisqa muddatli treninglar ko'rinishida berilishi o'qituvchi tomonidan o'zlashtirishni osonlashtiradi. Chunki, bu fanlar mazmunida aynan "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani kabi maqsad va vazifalar aniq yo'naltirilmagan. Lekin shunga qaramasdan, o'quvchining hayot ko'nikmalarini bilishi, yo'l harakati qoidalariga amal qilishi, atrofdagi unga xavf tug'dirishi nazarda tutilgan holatlarni anglab yeta olishi yoki favqulodda vaziyatlarga har doim tayyor bo'lishi ko'nikmasini rivojlantirib borish aslida har bir fanning maqsad va vazifalariga ham uyg'unlashtirilishi maqsadga muvofiq masala hisoblanadi.

X va XI-sinflarida "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani o'quv dasturi talablarida favqulodda vaziyatlarda mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashda to'g'ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi belgilanganligi bois, fan tarkibida "Fuqaro muhofazasi" va "Tibbiy bilim asoslari" bo'limlar ko'rinishida kiritilgan.


Lekin ushbu fanning o'quv darsligini ishlab chiqishda Favqulodda vaziyatlar vazirligidan tegishli mutaxassislar jalb etilmagan hamda darslikning tegishli bo'limlarida kamchiliklarga yo'l qo'yilgan.

**Ijtimoiy buyurtma:** davlat talablari, tarbiya, sinf soati, fizika, biologiya, kimyo, jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari kesimida o'quvchilarga hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish

**Maqsad:** o'quvchilarga mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash asosida hayot xavfsizligi qoidalarini o'quv fanlari kesimida o'rgatishning interfaol usullardan foydalanishning didaktik modeli



hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishda interfaol usullardan samarali foydalanish shakllari va texnologiyalari asosida vaziyatga baho berish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida hayot xavfsizligi qoidalarini o'quv fanlari kesimida interfaol texnologiyalardan foydalanishga yo'naltirilgan o'qitish metodikasini takomillashtirish



**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA HAYOT XAVFSIZLIGI QOIDALARINI O'QUV FANLARI KESIMIDA O'RGATISHNING INTERFAOL USULLARI**

**Innovatsion yondashuvlar:** *Texnologik xarita, aqliy hujum, "FSMU" va "Blits so'rov" texnologiyasi, "T-chizma", klaster, "Idrok xaritasi", "Venn diagramma" va "Nima uchun" uslublari sahna ko'rinishlari, vaziyatli o'yinlar, viktorini savollari, test, skanvord, boshqotirma va krossvordlar*

**Interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish**

- shaxsiy fikr yuritish va tahlil etishni rivojlantirish;
- umumiy ishda ishtirok etish mas'uliyatini tushunish;
- o'quv faoliyatida faol sub'yekt pozitsiyasini shakllantirish;
- muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
- kognitiv, ijtimoiy va jismoniy faollikni oshirish.

**Tashkiliy-metodik tizimi**

**Interfaol ta'lim:** bu kognitiv faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli. Interfaol ta'limning eng muhim maqsadlaridan biri o'quvchiga o'z muvaffaqiyatini, intellektual hayotiyiligini his qiladigan qulay ta'lim sharoitlarini yaratishdir.

**O'yin turlari:**


- mavzuli o'yinlar;
- ijodiy, rolli o'yinlar;
- didaktik o'yinlar;
- ishbilarmonlik o'yinlari;
- intellektual o'yinlar.

**Usullar:** suhbat, anketa, savol-javob, tahlil, umumlashtirish, test, pedagogik eksperiment, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash kabi empirik usullari.

**Hayot xavfsizligi qoidalarini o'quv fanlari kesimida o'rgatishning interfaol usullari yuzasidan olib borilgan**

Hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish orqali favqulodda vaziyatlarga mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashga qaratilgan ko'rsatkichlardan motivlar, yo'nalganlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, yangiliklarni izlab topish va kiritish, o'zining amalga oshirayotgan harakatiga baho berishni aniqlash bilan bog'liq ilmiy natijalarni rivojlanish, farqlash va individuallashtirish, tabiiylik, dialogik aloqa, mavjudlik, muvofiqlik, izchillik ta'lim tamoyillariga asoslangan holda takomillashtirish.

**Hayot xavfsizligi qoidalarini bilish ko'rsatkichlari**



**Natija:** interfaol usullardan foydalanib, o'quv fanlari kesimida hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish orqali favqulodda vaziyatlarda mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalangan o'quvchilar

**2-rasm. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining hayot xavfsizligi qoidalarini o'rgatish asosida mas'uliyatlilik ko'nikmalarini shakllantirish modeli**

